

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK:339.138:6P8(575.1)

Azlarova Munira Muxammad-Amin qizi


**ISTE‘MOL BOZORINI OZIQ-OVQAT TOVARLARI BILAN
TO‘LDIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN
FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH
(qandolat mahsulotlari misolida)**

08.00.11 – «Marketing»

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini
olish uchun yozilgan
DISSERTASIYA

**Ilmiy rahbar:
i.f.d., prof. N.Q. Yo‘ldoshev**

TOSHKENT- 2023



MUNDARIJA

KIRISH	3
I-BOB. ISTE'MOL BOZORINI OZIQ-OVQAT TOVARLARI BILAN TO'LDIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI	12
1.1. Iste'mol bozorini oziq-ovqat tovarlari bilan to'ldirishning nazariy asoslari.....	12
1.2. O'zbekistonda oziq-ovqat tovarlariga bo'lgan talab tarkibidagi o'zgarishlar va tendensiyalar.....	25
1.3. Iste'mol bozorini oziq-ovqat tovarlari bilan to'ldirishda marketing strategiyalaridan foydalanishning uslubiy jihatlari.....	35
I-BOB BO'YICHA XULOSA	46
II-BOB. ISTE'MOL BOZORINI QANDOLAT MAHSULOTLARI BILAN TO'LDIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH HOLATI TAHLILI	49
2.1. Qandolat mahsulotlari bozorining rivojlanish tendensiyalari.....	49
2.2. Iste'molchilarning qandolat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishda marketing strategiyalaridan foydalanish holati tahlili.....	65
2.3. Qandolat mahsulotlariga bo'lgan talabning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....	82
II-BOB BO'YICHA XULOSA	97
III-BOB. ISTE'MOL BOZORINI QANDOLAT MAHSULOTLARI BILAN TO'LDIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH	97
3.1. Iste'mol bozorini qandolat mahsulotlari bilan to'ldirishda marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish.....	97
3.2. Iste'mol bozorini qandolat mahsulotlari bilan to'ldirishda marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish.....	107
3.3. O'zbekistonda qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishning prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.....	128
III-BOB BO'YICHA XULOSA	145
XULOSA	146
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	149
ILOVALAR	166

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyoti globallasuvi sharoitida mamlakatlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida oziq-ovqat mahsulotlari ta'minoti va oziq-ovqat xavfsizligi muammolari yaqqol namoyon bo'lmoqda. Keyingi yillarda COVID-19 pandemiyasi tufayli ochlikdan aziyat chekayotganlar soni ortdi. «2014-yildan 2019-yilgacha deyarli o'zgarmagan holda to'yib ovqatlanmaslikning tarqalishi bir yil avvalgi 8,4 foizdan 2020-yilda 9,4 foizga ko'tarildi. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilda 811 millionga yaqin odam to'yib ovqatlanmaslik va ochlik muammosiga duch keldi».¹ Bu esa iste'mol bozorini oziq-ovqat tovarlari bilan to'ldirish muammosini yanada kuchaytirib, uni hal etishda zamonaviy usul va vositalardan, jumladan, marketing strategiyalaridan foydalanishning dolzarbligini oshirmoqda.

Jahonda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, global beqarorlikning kuchayishi mamlakatlar iste'mol bozorini sifatli oziq-ovqat tovarlari bilan to'ldirish, aholisini yetarli darajadagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, xususan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasidagi ilmiy izlanishlarni taqozo etmoqda. Aholini xavfsiz, to'yimli va yetarli darajadagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, oqilona iste'molini tashkil etish, ovqatlanish madaniyatini oshirish, iste'mol bozorini oziq-ovqat tovarlari bilan to'ldirish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini marketing strategiyalari asosida rivojlantirish, iste'mol bozorini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish, oziq-ovqat tovarlariga talabni to'laroq qondirishda marketing tadqiqotlari samaradorligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda marketing tamoyillaridan foydalanish, oziq-ovqat tovarlari bozorini rivojlantirishning marketing strategiyalarini ishlab chiqish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

¹ <https://www.fao.org/state-of-food-security-nutrition/ru/>